

## **Yoshlarni Vatan Himoyasiga Tayyorgarligini Oshirishda Vatanparvarlik Tuyg‘usini Shakllantirish**

**A. I. Hikmatov<sup>1</sup>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni vatan himoyasiga tayyorgarligini oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish to‘g‘risida fikrlar yoritilgan bo‘lib, unda yoshlar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an‘analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi.

**Таянч иборалар:** Mamlakat, vatanparvarlik, ta‘lim-tarbiya, yoshlar, his-tuyg‘u, harbiy, sport, jamiyat, ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik, hafsizlik.

**Kirish:** O‘zbekiston Respublikasida Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat pedagoglar, balki keng jamoatchilik orasida tarbiya muammolariga qiziqishning sezilarli o‘sishi hisoblanadi. Mamlakat hayotida ko‘pgina vazifalarning hal etilishi yosh avlodda fuqarolik his-tuyg‘usini shakllanganligi darajasiga, ma‘naviy-axloqiy takomillashtirish ehtiyojiga, o‘z Vatanining tarixiy-madaniy merosiga hurmat hissiga bog‘liqligi ma‘lum bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya o‘ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta‘kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar.

Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an‘analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi.

Mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilishda yoshlarimizni harbiy hayotga tayyorlash borasida jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta‘kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish hamda vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib turibdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi ta‘limi sohasida «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarda fuqarolik tushunchasi, ularning mas‘uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport o‘ynlari va musobaqalari hamda turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur»,

<sup>1</sup> Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta‘lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi



«Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta“sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e“tibor qaratilmoqda.

Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. 2017-2021-yillarda O.,zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo,,yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo,,nalishlaridan biri «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag,,rikenglikni ta“minlash hamda chuqr o,,ylangan, o,,zaro manfaatlvi amaliy tashqi siyosat» qilib belgilanganligi harbiy vatanparvarlikni chinakam e“tiqodga aylantirish bilan bog,,liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Davlat va mahalliy vatanparvarlikda hududiy jihatni ta“kidlash lozim. Ajdodlar yerini e“zozlash vatanparvarlikning qadimiyligi tarixiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Aynan shu mazmunda vatanparvarlikning obyektlari – bog,,liq Vatanlarning paydo bo,,lishidan avval uning asoslarining yuzaga kelganligini ta“kidlash mumkin.

**Asosiy qism:** Ko,,pgina tadqiqotchilar qadimgi xalqlarda Vatanni aniqroq tushunish oilaviy tadbirlar bilan bog,,liq bo,,lganligini ta“kidlagan. Inson o,,z yeriga qanday munosabatda bo,,lishi kerakligi to,,g,,risidagi savolga javob berib, N. Berdyayev quyidagicha yozgan: «Ona yer qiyofasi nafaqat ona qiyofasi, bu shuningdek kelin va rafiq qiyofasi va bola qiyofasi. O,,z yeriga muhabbatsiz inson biror-bir ishda, yerni egallashda kuchsiz bo,,ladi» .

Vatanparvarlik ijtimoiy ongini alohida shaxslarning va ijtimoiy guruhlarning, mazkur miqdor tavsifidan boshqa hech qanday o,,z sifatlariga ega bo,,lmaq individual ongi majmui sifatida tasavvur qilib bo,,lmaydi. Vatanparvarlik alohida insonlarning ma“naviy ongingin majmuidan iborat deb hisoblash xato bo,,lar edi. Vatanparvarlik – ma“naviy-amaliy hodisa va shaxslar tomonidan yuzaga keltiriladigan jamiyatning vatanparvarlik ongi bilangina cheklanmaydi, ammo bunda yetarli mustaqillikni saqlashini ta“kidlab o,,tish lozim.

Vatanparvarlik ongingin mazkur shakllaridan har biri – ijtimoiy va individual – boshqasini nazarda tutadi va usiz mavjud bo,,la olmaydi, ularning o,,zaro aloqadorligi va o,,zaro singishi ularning ajralmas umumiyligini anglatadi. Bularning barchasi milliy ongga ham xosdir. Yuqorida keltirilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mohiyatiga tayanib, u o,,zining belgilangan chegaralari, sifatli tavsiflariga egaligi ta“kidlaymiz. Bu uning o,,ziga xos xususiyatlari, maqsadlari, vazifalari, yo,,nalishlari va vositalarini ajratishga imkon beradi.

Davlat vatanparvarligini belgilovchi fazoviy tavsiflar bilan bog,,liq bo,,lgan vatanparvarlik boshqa darajalarga ham ega. Davlatlar hududi vatanparvarlikning mustaqil obyektlari hisoblangan hududlardan tashkil topadi va mos ravishda ularga hududiy (mahalliy) vatanparvarlik xosdir.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqariladigan hududlar, bular – respublika, o,,lka, viloyat, avtonom okrug va viloyat, boshqa tomondan – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan boshqariladigan hududlar ajratiladi - tumanlar, shaharlar, qishloqlar va h.k.

Ya“ni insonning o,,z Vataniga aniq vatanparvarlik munosabatining turli darajalari mavjud.

Shunga ko,,ra ilmiy apparatga «mahalliy vatanparvarlik» tushunchasini kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (bu mazmunda biz qator tadqiqotchilarning nuqtayi nazarini qabul qilamiz). Mamlakatdagi vatanparvarlik o,,z ona yerlariga muhabbatdan kelib chiqishi mumkin va aksincha Vatanga muhabbat mahalliy vatanparvarlikda o,,z ifodasini topadi.

Vatanparvarlikning mohiyati va mos ravishda mahalliy darajadagi turli xil soxta vatanparvarliklardan farqi o,,z maktabi, qishlog,,i yoki viloyatiga nisbatan vatanparvarlikni ifodalab, biz bu bilan o,,z mamlakatimizga vatanparvarlikni ifodalashimizdan iborat.

Davlat vatanparvarligining ahamiyatini ta“kidlab, mazkur tushunchaning nazariy ishlab chiqilishi zaruratiniko,,rsatish lozim. Bu unga turli mazmun yoki aksincha mavhum ma“no kiritishi mumkinligi bilan tushuntiriladi. Ya“ni mazkur muammo maxsus o,,rganilishi talab etiladi. Bunda davlat vatanparvarligiga biz Vatanga, davlatga nisbatan vatanparvarlik sifatida ta“rif berishimizni ta“kidlaymiz. Davlat vatanparvarligining muhim rolini ta“kidlab, uni mutloqlashtirib bo,,lmaydi.



Haqiqiy, deklativ bilan hech qanday umumiylikka ega bo,,lman vatanparvarlik, o,,z Vataniga, uning tarixiga, an“analari, madaniyati, tarixiy ildizlari va ajdodlar merosiga chuqur his-tuyg,,udan kelib chiqadi.

Davlat vatanparvarligi bilan uzviy bog,,liq bo,,lgan madaniy-tarixiy vatanparvarlikni xo,,jalik, utalab-odatlar, xalq og,,zaki ijodi va boshqalarga namoyishkorona yo,,nalganlik emas, balki abadiy ahamiyatga ega bo,,lgan jasorat va buyumlardan faxrlashnish sifatida tushunish lozim. U Vatan tarixidagi barcha yaxshi jihatlarga qaratilgan. Uning vaqt tavsiflari bilan bog,,liq bo,,lgan madaniy-tarixiy vatanparvarlik Yurtimizda ming yildan ortiq yo,,lida o,,z obyektlariga egadir. Faqatgina quyidagi jihatlarga e“tibor qaratish qoladi.

Vatanimizning tarixi millatining “aslligi”ga uning jahon taraqqiyoti yutuqlaridagi qo,,shgan hissasiga nisbatan bildirilgan shubhalar nuqtayi nazaridan buziladi. Bu mulohazalarni vatandoshlarimizning jahon madaniyatiga qo,,shgan hissalari asosli ravishda rad etadi. Madaniy-tarixiy vatanparvarlikka ega bo,,lgan insonlar uchun ulkan faoliyat maydoni mavjud. Rivoyatlar, dostonlar, hikoyatlarda keltirilgan bizning ma“naviy ildizlarimizni namoyon etish bugungi kunda juda muhim.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatga nisbatan o,,zining yo,,nalganligi bo,,yicha o,,zining asosiy ijtimoiy vazifasini bajaradi, ya“ni inson omilining mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga faol, maqsadga yo,,nalgan ta“sir etadi. Ijtimoiy nuqtayi nazaridan, ko,,rinib turganidek, biz tadqiq etayotgan tizimning tarbiyaviy vazifalari to,,g,risida aytish mumkin.

Ularga bizningcha, *birinchidan*, harbiy-siyosiy yo,,nalganlik va vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishni kiritish kerak bo,,lib, uni amalga oshirish jarayonida insonlarda, yosh avlodda vatanparvarlik hissi, mamlakatning va Qurolli kuchlarning mudofaa qibiliyatini mustahkamlashda har bir insonning o,,z ijtimoiy rolini chuqur tushunishi, bu rolini fuqarolik va harbiy burchi sifatida anglash shakllanadi.

*Ikkinchidan*, bu insonning, ayniqsa yoshlarning harbiy mehnatga, o,,z Vatanini himoyalashga tayyorgarligini shakllantirish, harbiy xizmat ijtimoiy ahamiyatining chuqur anglash, Qurolli kuchlarga muhabbat, qiyinchiliklarga ma“naviy-psixologik immunitetni, harbiy faoliyatning favqulodda vaziyatlarida shaxs xulqining barqarorligini shakllantirish vazifasi.

*Uchinchidan*, Vatanni qurolli himoya qilishda katta avlodning ijtimoiy tajribasining uzviyigini ta“minlashdan iborat bo,,lgan kommunikativ vazifani ta“kidlash lozim.

To,,rtinchidan, Vatanni himoya qilish uchun zarur bo,,lgan axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vazifasi, uning yordamida qahramonlik-axloqiy ma“naviy ideallar yuzaga keladi.

yuqori ta“lim-tarbiyaga  
asoslanadigan  
vatanparvarlik tarbiyasi

jismoniy tayyorgarlik;

harbiy tayyorgarlik, ya“ni  
bo,,lajak askarga zarur  
bo,,lgan ko,,nikma va  
malakalarni egallash

### **1-Rasm. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida uchta asosiy yo‘nalishlar.**

*Qahramonlik-vatanparvarlik tarbiyasi* ajdodlarning jasoratlari uchun faxr-iftixor hissini tarbiyalashni targ,,ib qilishga yo,,naltirilgan.

*Milliy-vatanparvarlik tarbiyasi* o,,zining kichik Vataniga muhabbat hissini, milliy an“analar va madaniyatga hurmatli munosabatni shakllantiradi, o,,z xalqi uchun faxr hissini uyg,,otadi.

*Fuqarolik tarbiyasi* – bu huquqiy madaniyatni, aniq fuqarolik vaziyatini, o,,z xalqiga ongli va ixtiyoriy xizmat qilishga tayyorlikni shakllantirishdir. Fuqarolik tarbiyasi insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuini ifodalovchi fuqarolik kabi ta“rif bilan tavsiflanadi. Insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuiga vatanparvarlik, insonparvarlik axloqiy qadriyatlarga yo,,nalganlik, ijtimoiy va kasbiy o,,zini-o,,zi aniqlash zarurati, qadr-qimmat hissi, ijtimoiy



adolat va javobgarlik, umuminsoniy birdamlik, fikr erkinligi, shaxslararo va millatlararo muloqot madaniyati va boshqalar kiritaldi.

*Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi* yoshlarga amalda barcha zarur huquqlarni ta“minlashga xizmat qiluvchi davlat va yoshlar o„rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, mavjud huquqiy bazaga asoslanadi. Bu yo„nalishdagi va zamonaviy sharoitlardagi ishlar davlat me“yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurati bilan bog,,liq. Afsuski, qonunlarning yoshlarning manfaatlariga taalluqli bo,,lgan alohida qoidalari amalda bajarilmaydi.

Sotsiologlar fikriga ko„ra, fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi, agar 80% yoshlarni davlatdagi qabul qilingan qonunlar qoniqtirishi sharoitida mumkin bo„ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi tizimini yanada batafsil o„rganish va takomillashtirish uchun sharoitlar obyektiv mavjud bo„lib, ular quyidagi omillar bilan bog,,liq. Shu jumladan, XX asrning 90-yillari oxirida harbiy-vatanparvarlik ishlarining keskin pasayishi, sobiq Sovet Ittifoqining yemirilishi va jamiyatda armiyaning obro,-e“tiborining pasayishi oqibatida harbiy xizmatni o„tashni xohlamaydiganlar sonining o„sishi va chaqiruv tarkibining sifati yomonlashishiga olib keldi.

Respublikamizda vatanparvarlik mohiyati, mazmuni, tuzilmasi va yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlarligi, uning mamlakat mudofaa qobiliyatini ta“minlashda tarbiya tizimidagi roli va o„rnini chuqr va har tomonlama tahlil qilish zarurati yuzaga keldi.

Zamonaviy yoshlar vatanparvarligining ulkan imkoniyatlari va uni zamonaviy ijtimoiy hayot sharoitlarida samaraso,, amalga oshirilishi o„rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

*Xulosa:* Zamonaviy yoshlarda ularning xususiyatlari va manfaatlarini, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni inobatga olib, vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha faoliyatni yaxshilash zarur.

*Shuning uchun bugun zamonaviy hayot voqeligidan kelib chiqib, yoshlarning turli toifalarida Vatan himoyasiga tayyorlikni tarbiyalash prinsiplari, metodlari, shakllari, vositalari asosida tuzilgan vatanparvarlik tarbiyasining yangi tizimini qurish va amalga oshirish kerak.*

*Vatan himoyasiga tayyorlarlikni oshirish, ayniqsa zamonaviy sharoitlarda yosh avlod bilan amalga oshiriladigan katta ishlarni nazarda tutishini ta‘kidlaymiz.*

*Bu obyektiv amal qiluvchi- ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, harbiy-texnik omillarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi.*

*Shubhasiz, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini kuchaytirish bo‘yicha faoliyat bugungi kunda mahalliy, hududiy xususiyatlarni, shuningdek foydalaniladigan kuchlar va vositalarni avvalgidan ko‘ra ko‘proq inobatga olishi kerak.*

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O„zbekiston, 2020. – B.452.
2. «Ta“lim to„g„risida»gi O„zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O„zbekiston, 23.09.2020. (Qonun hujjatlari ma“lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son).
3. O„zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O„zbekiston, 463-I-son 29.08.1997.
4. O„zbekiston Respublikasi Prezidentining «O„zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo„yicha Harakatlar strategiyasi to„g„risida»gi Farmoni // O„zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to„plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
5. Vatan himoyasi – milliy iftixor. O„zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo„mondoni I.A.Karimov asarlaridan olingan harbiy vatanparvarlikka doir hikmatli fikrlar majmuasi. – Toshkent: O„qituvchi, 2004. – 6 b.
6. O„zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O„zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo„llab-quvvatlash to„g„risida»gi PF-5106-son Farmoni.



O.,zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to,,plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.

7. Камбаров А.М. Актуальные проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания молодежи на современном этапе // Проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания военнослужащих и пути решения. – Ташкент: ABC РУ. 2001. – С. 5.
8. Ahmedov B. Amir Temur darslari. – Toshkent: “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2001. –B. 141.
9. Bekmurodov M. Milliy mentalitet va rahbar ma“naviyati. – Toshkent: Adolat, 2003. – 126 b.
10. Vatan tuyg,,usi. – Toshkent: O.,zbekiston, 1996. – B. 439.
11. Vatan himoyasi – milliy iftixor. O.,zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo,,mondoni I.A.Karimov asarlaridan olingan harbiy vatanparvarlikka doir hikmatli fikrlar majmuasi. – Toshkent: O.,qituvchi, 2004. – 6 b.
12. Vatan himoyasi – muqaddas burch / Tuzuvchilar: Inoyatov I.Y., Abilov M.H. – Toshkent: O.,zbekiston, 2001.
13. Военный энциклопедический словарь. – М.: Эксмо-Пресс,2007. 1024 с.
14. Jo,,rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. – Toshkent: Ma“naviyat, 2001.
15. Jo,,rayev T., Paxruttinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiyashgan diniylik: azaliy muxolifat. – Toshkent, 2008. – 129 b.
16. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. 2-kitob. -Toshkent: Mehnat, 1992. – 65 b.
17. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo,,rayev N. Vatan tuyg,,usi.– Toshkent:: 1996. – B.13.
18. Ergasheva. G.M. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko,,rgazmali quollardan foydalanish (O,,quv-uslubiy qo,,llanma). –Toshkent: Oliy harbiy texnika bilim yurti, 2008. – 20 b.
19. Ergashev B.E., Ne“matov B.M. Ma“naviy-axloqiy va harbiy tarbiyani takomillashtirish yo,,llari. – Toshkent: O.,zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2004.
20. Harbiy xizmat axloqi. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – 110 b.
21. Abdurasulov O.A. Harbiy xizmatchilar o,,rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo,,llari va uning nazariy asoslari // O.,zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarixi, buguni va kelajagi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: O.,zRMV, 2005. – B. 96-98.
22. Abdurasulov O.A., Nazarov A.S. Yoshlar ma“naviyati shakllanishida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining roli // Milliy istiqlol g,,oyasi va armiya. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004.

